


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**



**KIRISH IMTIHONLARIDA "CHET (KOREYS, YAPON, XITOY,  
ARAB) TILI" FANI MAVJUD BARCHA SHAKLDAGI TA'LIM  
YO'NALISHLAR (KO'ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR VA  
BAHOLASH MEZONI**

**Toshkent - 2023**

Dastur O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti O'quv - uslubiy kengashining  
2023 yil "22" 06 dagi 10 sonli majlisida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

**Tuzuvchilar:** O'zDJTU Yapon tili nazariyasi va amaliyoti kafedra mudiri  
N.M. Xamidova

O'zDJTU Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasи mudiri  
Sh.E.Hakimova

O'zDJTU Koreys tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasи mudiri  
A.M. Azimova

O'zDJTU Koreys tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasи  
o'qituvchisi E.D. Sobirov

O'zDJTU Yapon tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasи katta  
o'qituvchisi M.M. Ibragimova

O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasи  
o'qituvchisi Rahimova Shahribonu

**Taqrizchilar:** TDSHU Koreys filologiyasi kafedrasи professori, f.f.d. N.D.  
Kim.

O'zDJTU. Ingliz tili amaliy fanlar kafedrasи mudiri, p.f.f.d.  
(PhD) M.X .Gulyamova

## KIRISH

Ushbu dastur **yapon, koreys, xitoy va arab** tillaridan imtihon topshiradigan ko'zi ojiz abiturentlarga mo'ljallangan bo'lib, unda abiturentlarning chet tillarining tinglab tushunish, og'zaki nutq ko'nikmasi, matnda ishlatilgan so'z va iboralarni tarjima qila olish qobiliyati aniqlanadi. Dasturda keltirilgan ushbu mavzular abiturentlarning xorijiy tillarda bilimlarini baholashda muhim o'rinni tutadi.

### Fanning maqsadi va vazifasi

**Mazkur dasturning maqsadi** ko'zi ojiz abiturentlarning yapon, xitoy, koreys va arab tili fanlaridan bilim darajasini aniqlashdan iborat.

**Dasturning vazifasi** ko'zi ojiz abiturentlarning chet tillarida eshitish ko'nikmalarini aniqlash;

- abiturentning mustaqil fikrini bayon etish kompetensiyasini bilish;
- original matnni tushunish darajasini aniqlash;
- berilgan matnlar yuzasidan o'zining fikr mulohazasini chet tilida bayon qilish;
- og'zaki nutq ko'nikmasi, leksik til boyligi, talaffuzini aniqlash;
- abiturentning og'zaki suhbatga kirishish kompetensiyalarni aniqlashdan iborat.

## ASOSIY QISM

**Fonetika.** Abiturentlarni o'z fikrini erkin, ifodali va to'g'ri bayon etishlari uchur fonetik qoidalarga rioya qilishi muhim hisoblanadi. Bunda asosan ular so'zlarning to'g'ri talaffuz qilishi, ohangga ahamiyat bergen holda gapirishi va urg'ularning to'g'ri qo'llanilishiga ahamiyat berish kerak.

**Grammatika.** Chet tilidagi nutqni to'g'ri bayon qilishda asosan gaplarda so'z tartibi, gaplarning maqsadiga ko'ra turlarini bilish muhim ahamiyat kasb qiladi. Bundan tashqari abiturentlar quyidagi grammatik xodisalarni bilishi kerak :

**Mustaqil so'z turkumlari.** Ot. Turdosh va atoqli hamda ularning turlari , otlarda son kategoriyasi, otlarning ko'plik yasalish formalari va ularning turlanishi haqida to'xtalib o'tilgan.

**Sifat.** Sharq tillarida sifat darajalar, asliy va nisbiy sifatlar, sifatlarning yasalishi, sifatlarning otlashishi va ularning turlanishi. Holat fe'llarining

xususiyatlari (sifatlar). Sifat darajalar, asliy va nisbiy sifatlar, sifatlarning yasalishi, sifatlarning otlashishi va ularning turlanilishi.

**Son.** Sanoq va tartib sonlarning yasalishi va qo'llanilishi. Sonlarning otlashishi. Olmosh va ularning turlari. Olmoshlarning kelishiklarda qo'llanilishi va ularning gapdag'i sintaktik vazifasi.

**Fe'l.** O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'llarning yasalishi. Fe'llarning tuslanishi. Fe'l zamонлари.

**Ravish** va ularning turlari, yasalishi. Tilda fe'llarning kelishiklar bilan ishlatilishi. Fe'llarni hurmat va oddiy shaklda qo'llanishi.

**Yordamchi so'z turkumlari:** ko'makchi, bog'lovchi, yuklama va ularning ma'no va tuzilish jihatdan turlari.

**Modal so'zlar**, undov so'zlar, taqlid so'zlar, tasdiq va inkor so'zlar.

**Sintaksis.** Gap. Gap bo'laklari. Bog'lovchilar va ularning turlari. Uyushiq bo'lakli gaplar. Ajratilgan bo'laklar. Gapning tuzilishi jihatdan turlari.

Qo'shma gap. Ergash gapli qo'shma gap va ularning turlari.

### **Og'zaki suhbatning taxminiy mavzulari:**

1.O'zbekiston. O'zbekiston tarixi, aholisi, maydoni, chegarasi, poytaxti, tarixiy shaharlari, milliy bayramlari, O'zbekistonning chet davlatlar bilan aloqasi.

2.Tili o'r ganilayotgan mamlakat tarixi, aholisi, geografik joylashishi, sanoati, siyosiy tizimi, yirik shaxarlari, milliy bayramlari, buyuk shaxslari.

3. Yil fasllari.

4. Tarjimai holi, men haqqimda, mening oilam, mening ish kunim, mening do'stim, mening ona shahrim, mening sevimli yozuvchim (shoirim), men tanlagan kasb.

5. Mening dam olish kunim, teatr, kino, kutubxonaga tashrif, sport mening hayotimda.

## **CHET (YAPON, KOREYS, XITOY, ARAB) TILI FANIDAN KIRISH IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI**

Ko'zi ojiz abituriyentlar uchun kirish imtihoni besh balli baholash tizimida baholanadi.

Ko'zi ojiz abituriyentlar uchun kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi.

**Ko'zi ojiz abiturientlar uchun kirish imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:**

**1. Abiturientning javobi " 5 - baho " (a'lo ) ga baholanishi uchun:**

- nazariy bilimlarga ega bo'lsa;
- ijodiy fikrlay olsa;
- grammatikani chuqur -olgan bilimlarini amalda qo'llay olsa;
- erkin suhbat olib borish ko'nikmasiga ega bo'lsa.

**2. Abiturientning javobi " 4 - baho " (yaxshi) ga baholanishi uchun:**

- nazariy bilimlarga ega bo'lsa;
- ijodiy fikrlay olsa; -grammatikani bilsa;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olsa;
- erkin suhbat olib borishda biroz qiynalsa.

**3. Abiturientning javobi " 3 - baho " (qoniqarli) ga baholanishi uchun:**

- nazariy bilimlarga ega bo'lsa; -nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga qiynalsa;
- fikr ni to'liq bayon qila olmasa; -savollarga to'liq javob bera olmasa;
- grammatikani to'liq bilmasa.

**4. Abiturientning javobi " 2 - baho " (qoniqarsiz) ga baholanishi uchun:**

- nazariy bilimga va amaliy ko'nikmaga ega bo'lmasa;
- tarjima qila olmasa;
- savollarga javob bera olmasa;
- grammatikani bilmasa;
- erkin muloqotga kirisha olmasa.

## **Apellatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Apellatsiya komissiyasi imtihon komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yilishi bilan bir paytda 2023/2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent imtihon natijalari e'lon qilingan kundan boshlab, 24 soat ichida appellatsiya komissiyasiga murojaat etishi shart. Aks holda ko'rsatilgan muddatdan o'tib qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Apellatsiya komissiyasi abituriyentlar tomonidan bildirilgan og'zaki va yozma murojaatlariga javob beradi.

Abituriyent tomonidan bildirilgan murojaatni ko'rib chiqadi va 24 soat ichida xulosalarini ma'lum qiladi.